

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Jizzax politexnika instituti

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor,**

J.N.Abdunazarov

2026 yil



**05.06.02 - To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki
ishlov berish ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura
(DSc)ga qabul qilishda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish
va baholash bo'yicha**

USLUBIY KO'RSATMA

Jizzax-2026

Mazkur Uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26 -maydagi "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PF-98-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, ustuvor ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda talabgorlarning ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorgarligi va ilmiy salohiyatini xolis baholashga nisbatan yagona uslubiy yondashuvlarni shakllantirish maqsadida namuna sifatida ishlab chiqilgan hamda tavsiyaviy xususiyatga ega.

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Uslubiy ko'rsatmada ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

2. Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti (keyingi o'rinlarda — taqdimot) — talabgor tomonidan rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqotning maqsadi, obyekti, ahamiyati va uni amalga oshirish rejasi to'g'risidagi qisqacha ma'lumotni qamrab oluvchi material hisoblanadi.

3. Taqdimot ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha qabul hujjatlari tarkibida taqdim etiladi. Talabgor oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul uchun Davlat xizmatlari markaziga shaxsan murojaat qilganda yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali ariza yuborganda taqdimot elektron shaklda qabul hujjatlariga ilova qilinadi.

4. Taqdimotda keltiriladigan ma'lumotlar ishonchli ilmiy, statistik, tahliliy yoki boshqa tegishli manbalarga asoslanadi.

5. Tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) qo'yiladigan talablarga muvofiq, taqdimot mazmuniga va uni baholashga qo'yiladigan talablar alohida belgilanadi.

6. Taqdimotning mazmuni aniq, qisqa va mantiqiy izchillikda bayon etilishi, qismlari bir -biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, tadqiqot g'oyasini yaxlit anglash imkonini ochib berishi tavsiya etiladi.

7. Taqdimot davlat tilida tayyorlanadi. Tashkilotning faoliyat yo'nalishi yoki ilmiy ixtisoslik xususiyatidan kelib chiqib taqdimot rus, ingliz yoki boshqa tilda tayyorlanishi mumkin.

8. Taqdimotning mazmuni va tuzilishini shakllantirish bo'yicha namuna mazkur Uslubiy ko'rsatmaning 1 va 2-ilovalarida keltirilgan.

2-BOB. TAYANCH DOKTORANTURA (PhD) TAQDIMOTI

Tayanch doktorantura (PhD) taqdimoti talabgorning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorligi, ilmiy muammoni anglashi, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashi, tadqiqot uchun asoslangan usullarni tanlashi hamda tadqiqotni rejalashtira

olish salohiyatini namoyon etadi. Qabul jarayonida talabgordagi ilmiy yangilik yoki yakuniy ilmiy natija talab etilmaydi. Asosiy e'tibor tanlangan ilmiy muammoning asoslanganligi, tadqiqot qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi va taklif etilayotgan tadqiqotni amalga oshirish imkoniyatiga qaratiladi. Taqdimot quyidagi tarkibiy bo'limlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar. Ushbu bo'lim talabgor va rejalashtirilayotgan tadqiqot haqidagi dastlabki ma'lumotni shakllantiradi. Tadqiqot mavzusi tanlangan ilmiy ixtisoslik mazmuniga muvofiq bo'lib, aniq ilmiy muammo yoki masala yechimiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ushbu bo'limda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilishi lozim:

- ✓ oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning nomi;
- ✓ talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- ✓ ta'lim shakliga qabul — tayanch doktorantura (PhD);
- ✓ ilmiy ixtisoslikning shifri va nomi;
- ✓ rejalashtirilayotgan tadqiqot mavzusi.

2. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi. Ushbu bo'limda tadqiqotga asos bo'layotgan aniq ilmiy muammo yoki masala, uni hozirgi bosqichda o'rganish zarurati hamda mavzu bo'yicha mavjud ilmiy natijalar qisqacha tahlil qilinadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasini yoritishda hozirgi kunda qanday asosiy natijalar olingani va qaysi masalalar qo'shimcha tadqiqot talab etilishi ko'rsatiladi. Ushbu bo'limda quyidagilar:

- ✓ tadqiqotga asos bo'layotgan aniq muammo yoki masala;
- ✓ mavzuning dolzarbligini tasdiqlovchi asosiy dalillar;
- ✓ mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda erishilgan asosiy natijalar;
- ✓ tadqiqotning yetarlicha o'rganilmagan yoki hal etilmagan jihatlari;
- ✓ yangi tadqiqotni amalga oshirish zarurati;
- ✓ foydalanilgan asosiy manbalarga qisqa havolalar aks ettiriladi.

3. Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi ilmiy muammodan kelib chiqib shakllantiriladi va tadqiqot natijasida erishilishi ko'zda tutilayotgan asosiy ilmiy natija yo'nalishini ifodalaydi. Vazifalar maqsadga erishish uchun bajariladigan asosiy ilmiy ishlar ketma-ketligida va bir-birini takrorlaman holda beriladi. Ushbu bo'limda quyidagilar:

- ✓ tadqiqotning aniq va umumlashtiruvchi maqsadi;
- ✓ maqsadga erishishga qaratilgan asosiy ilmiy vazifalar;
- ✓ vazifalarning o'zaro mantiqiy ketma-ketligi;
- ✓ maqsad va vazifalarning ilmiy muammo bilan bog'liqligi;
- ✓ vazifalar orqali erishilishi kutilayotgan natija yo'nalishi aks ettiriladi.

4. Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi. Tadqiqot obyekti sifatida tadqiqot yo'naltirilgan jarayon, tizim, hodisa, texnologiya, munosabat yoki boshqa ilmiy soha tushuniladi. Tadqiqot predmeti sifatida esa obyekt doirasida bevosita o'rganiladigan muayyan xususiyat, bog'liqlik, mexanizm, jarayon yoki usul tushuniladi.

Ushbu bo'limda:

- ✓ tadqiqot obyekti;
- ✓ tadqiqot predmeti;
- ✓ obyekt va predmet o'rtasidagi bog'liqlik;
- ✓ ularning tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiqligi;
- ✓ tegishli hollarda hududiy, vaqt, ma'lumotlar, tajriba qamrovi aks ettiriladi.

5. Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Ushbu bo'limda tadqiqot qanday ilmiy yondashuv asosida va qaysi usullar orqali amalga oshirilishi ko'rsatiladi. Metodologiya tadqiqotni amalga oshirishning umumiy mantig'i, tadqiqot usullari esa muayyan vazifalarni bajarish uchun qo'llaniladigan eksperimental, qiyosiy, statistik, hisoblash, metodlashtirish, kuzatish, so'rov yoki ixtisoslik xususiyatidan kelib chiqadigan boshqa ilmiy usullarni qamrab olishi mumkin.

Ushbu bo'limda quyidagilar:

- ✓ tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi;
- ✓ qo'llaniladigan asosiy ilmiy usullar;
- ✓ usullarning tadqiqot vazifalari bilan bog'liqligi;
- ✓ ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilish tartibi;
- ✓ tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib ma'lumotlar, materiallar, dasturiy vositalar yoki uskunalari;
- ✓ tanlangan usullar orqali kutilayotgan natijalarni olish imkoniyati aks ettiriladi.

6. Tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati. Tadqiqot g'oyasi da talabgorning aniqlangan ilmiy muammoni qaysi yondashuv asosida o'rganish i, qanday bog'liqlikni tekshi rishi, mavjud yondashuvning qaysi jihatini rivojlantirishi yoki qanday ilmiy yechimni asoslash haqidagi fikri yoritiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati rejalashtirilayotgan natijalar fan sohasidagi mavjud bilimlarni qanday to'ldirishi, muayyan jarayon yoki hodisani tushunishga qanday aniqlik kiritishi yoki mavjud usul va yondashuvlarni rivojlantirishga qanday asos yaratishi mumkinligi orqali ochib beriladi.

Mazkur bo'limda quyidagilar aks etiriladi:

- ✓ tadqiqotning asosiy g'oyasi;
- ✓ tadqiqot orqali aniqlanishi, tekshirilishi yoki asoslanishi kutilayotgan masala;
- ✓ taklif etilayotgan yondashuvning mavjud tadqiqotlardan farq qiluvchi yoki ularni to'ldiruvchi jihat;
- ✓ kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishi;
- ✓ tadqiqotning ilmiy ahamiyati;
- ✓ tegishli hollarda natijalarning amaliy qo'llanish imkoniyati.

7. Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ish rejasi. Ushbu bo'limda tadqiqotning uch yillik davrda amalga oshirilishi, asosiy ilmiy ishlar va oraliq natijalarning bosqichma -bosqich shakllanishi, natijalarni umimlashtirish,

dissertatsiyani yakunlash, dastlabki ekspertizadan o'tkazish hamda uni Ilmiy kengashda himoya qilishgacha bo'lgan umumiy ketma-ketlik aks ettiriladi.

Mazkur bo'limda quyidagilar:

- ✓ tadqiqotning asosiy bosqichlari;
- ✓ har bir bosqichda bajariladigan asosiy ilmiy ishlar;
- ✓ vazifalarning uch yillik davr bo'yicha taqsimlanishi;
- ✓ har bir bosqich yakunida kutilayotgan oraliq natijalar;
- ✓ bosqichlar va oraliq natijalarning o'zaro mantiqiy bog'liqligi;
- ✓ tadqiqot natijalarini umumlashtirish va dissertatsiyani yakunlash;
- ✓ dissertatsiya bajarilgan muassasada dissertatsiyani dastlabki

ekspertizadan o'tkazish;

- ✓ dissertatsiyani himoyaga taqdim etish va Ilmiy kengashda himoya qilish;
- ✓ tadqiqot va dissertatsiya ishini belgilangan uch yillik muddatda yakunlash imkoniyati yoritiladi.

8. Tadqiqotni amalga oshirish imkoniyati va yakuniy asoslash. Ushbu bo'limda talabgor rejalashtirgan tadqiqotning amalga oshirilishi uchun mavjud yoki jalb etilishi mumkin bo'lgan asosiy imkoniyatlar baholanadi.

Ushbu bo'limda quyidagilar aks ettiriladi:

- ✓ tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar, materiallar va tadqiqot bazasi;
- ✓ tegishli hollarda laboratoriya, uskuna, dasturiy vosita yoki boshqa resurslar;
- ✓ ulardan foydalanish imkoniyati;
- ✓ tadqiqotni uch yilda amalga oshirish imkoniyat mavjudligi;
- ✓ tadqiqotni amalga oshirishdagi asosiy qiyinchilik yoki cheklovlar;
- ✓ tadqiqot muammosi, maqsadi, metodologiyasi, g'oyasi va rejasining umumiy muvofiqligi;
- ✓ tadqiqotni amalga oshirishning yakuniy ilmiy asosi.

Taqdimotning tarkibiy bo'limlari tuzilishini shakllantirish bo'yicha namuna mazkur Uslubiy ko'rsatmaning 1-ilovasida keltirilgan.

3-BOB. DOKTORANTURA (DSc) TAQDIMOTI

Doktorantura (DSc) taqdimoti da talabgorning avvalgi ilmiy natijalari va tajribasiga tayangan holda yangi ilmiy muammoni belgilashi, uni hal etish konsepsiyasini asoslashi, kutilayotgan ilmiy yangilik hamda ilmiy va amaliy ahamiyati va tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi ko'rsatib beriladi. Ushbu taqdimotda talabgor avvalgi tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, fan sohasidagi mavjud holatni tanqidiy tahlil qilishi, hal etilmagan ilmiy masalani ajratishi va uni yangi ilmiy natijaga olib boruvchi konseptual hamda metodologik yondashuv asosida tadqiqot etish bo'yicha takliflari ifodalanadi. Doktorantura (DSc) taqdimoti quyidagi tarkibiy bo'limlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar. Ushbu bo'limda talabgor va rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti haqidagi

asosiy ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqot mavzusi tanlangan ilmiy ixtisoslikka muvofiq bo'lib, unda talabgorning avvalgi ilmiy ishlari takrori emas, balki ulardan kelib chiqadigan yangi yoki yuqori darajadagi ilmiy muammo ifodalanadi. Agar doktorantura tadqiqoti tayanch doktorantura dissertatsiyasi yoki keyingi ilmiy ishlarning mantiqiy davomi bo'lsa, mavzuning yangi ilmiy bosqichi va avvalgi tadqiqotdan farq qiluvchi jihati ko'rsatiladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning nomi;
- ✓ talabgorning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- ✓ ta'lim shakliga qabul — doktorantura (DSc);
- ✓ ilmiy ixtisoslikning shifri va nomi;
- ✓ rejalashtirilayotgan dissertatsiya tadqiqoti mavzusi aks ettiriladi.

2. Avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi. Ushbu bo'limda talabgorning tayanch doktorantura (PhD) dissertatsiyasi natijasida yoki keyingi ilmiy faoliyati doirasida erishgan, aynan rejalashtirilayotgan doktorantura (DSc) tadqiqotiga daxldor asosiy ilmiy natijalari yoritiladi. Bunda ilmiy maqolalar, monografiyalar yoki boshqa ishlar ro'yxatini keltirish bilan birga asosiy e'tibor qanday ilmiy masalalar hal etilgani va qanday natijalarga erishilganiga qaratiladi. Avvalgi natijalar doktorantura (DSc) tadqiqotining boshlang'ich ilmiy asosi sifatida ko'rsatiladi. Talabgor ning oldingi tadqiqotlar ida hal qilgan masalalari bilan yangi tadqiqot ida yechimi izlanayotgan muammo o'rtasidagi uzviylik ochib beriladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ tayanch doktorantura (PhD) dissertatsiyasi yoki keyingi ilmiy faoliyat doirasida olingan asosiy natijalar;
- ✓ ushbu natijalar orqali hal etilgan ilmiy masalalar;
- ✓ natijalarning ilmiy yoki amaliy ahamiyati;
- ✓ rejalashtirilayotgan doktorantura (DSc) tadqiqotiga bevosita daxldor natijalar;
- ✓ avvalgi natijalardan yangi tadqiqot muammosiga o'zviy bog'liqligi;
- ✓ doktorantura (DSc) tadqiqotining avvalgi ishlardan farq qiluvchi yangi yo'nalishi aks ettiriladi.

3. Ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlari. Ushbu bo'limda rejalashtirilayotgan tadqiqot yo'nalishi bo'yicha zamonaviy ilmiy holat tahlil qilinadi. Talabgor tomonidan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda erishilgan muhim natijalar, mavjud ilmiy yondashuv va yechimlar hamda ularning yetarli bo'lmagan jihatlari ko'rsatib beriladi. Taqdimotda talabgor tomonidan mavjud bilim va yechimlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish i bilan birga tahlil natijasida aynan qaysi ilmiy masala hal etilmagani va uni tadqiq etish doktorlik dissertatsiyasi darajasidagi ilmiy tadqiqot talab etilishi asoslab beriladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ tadqiqot yo'nalishining zamonaviy ilmiy holati;
- ✓ mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning asosiy natijalari;
- ✓ mavjud nazariya, usul, model, texnologiya yoki boshqa ilmiy yechimlar;
- ✓ mavjud yechim va yondashuvlarning yetarli bo'lmagan jihatlari;
- ✓ qo'shimcha tadqiqot talab etadigan masalalar;
- ✓ tadqiqot doirasida hal etilishi rejalashtirilayotgan asosiy ilmiy muammo;
- ✓ foydalanilgan asosiy ilmiy manbalarga havolalar aks ettiriladi.

4. Tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari. Tadqiqot konsepsiyasi da aniqlangan ilmiy muammoni hal etishga qaratilgan asosiy ilmiy g'oya, yondashuv va tadqiqot mantig'i ochib beriladi. Bunda talabgor tomonidan muammoni qanday ilmiy nuqtayi nazardan hal etishi rejalashtirayotgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqot maqsadi konsepsiyadan kelib chiqib shakllantiriladi, asosiy vazifalar esa mazkur maqsadga erishish uchun hal etiladigan o'zaro bog'liq ilmiy masalalardan tashkil topadi.

Mazkur bo'limda quyidagilar aks ettiriladi:

- ✓ hal etilishi rejalashtirilayotgan asosiy ilmiy muammo;
- ✓ tadqiqotning asosiy konsepsiyasi;
- ✓ konsepsiyaning mavjud ilmiy holatdan kelib chiqishi;
- ✓ tadqiqot maqsadi;
- ✓ maqsadga erishishga qaratilgan asosiy ilmiy vazifalar;
- ✓ vazifalarning o'zaro mantiqiy ketma-ketligi;
- ✓ vazifalar orqali erishilishi kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishlari.

5. Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi. Tadqiqot obyekti sifatida – rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti yo'naltirilgan jarayon, tizim, hodisa, texnologiya, munosabat yoki boshqa ilmiy soha tushuniladi. Tadqiqot predmeti sifatida esa obyekt doirasida bevosita o'rganiladigan xususiyat, bog'liqlik, mexanizm, qonuniyat, jarayon yoki boshqa ilmiy jihat tushuniladi. Doktorantura tadqiqotining obyekti va predmeti ilmiy muammo, konsepsiya, maqsad va vazifalar bilan o'zaro muvofiq holda belgilanadi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ tadqiqot obyekti;
- ✓ tadqiqot predmeti;
- ✓ obyekt va predmetning ilmiy muammo bilan bog'liqligi;
- ✓ ularning tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va vazifalariga muvofiqqligi;
- ✓ tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib hudud, vaqt, ma'lumotlar, tanlanma, eksperiment yoki boshqa tadqiqot qamrovi aks ettiriladi.

6. Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Ushbu bo'limda doktorantura tadqiqotini amalga oshirishning umumiy metodologik yondashuvi va ilmiy vazifalarni hal etish uchun qo'llaniladigan usullar tizimi bayon etiladi. Doktoranturada metodologiya faqat usullar ro'yxatidan iborat emas, balki talabgor qaysi vazifa uchun qanday ma'lumot zarurligi, ma'lumot qanday usul bilan olinishi va tahlil qilinishi,

natijalar qanday tekshirilishi yoki qiyoslanishi hamda ular asosida ilmiy xulosa qanday shakllantirilishi ko'rsatib beriladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvi;
- ✓ qo'llaniladigan asosiy ilmiy usullar;
- ✓ har bir usulning tegishli tadqiqot vazifasi bilan bog'liqligi;
- ✓ zarur ma'lumot, material yoki eksperiment natijalarini olish tartibi;
- ✓ ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va qiyoslash usullari;
- ✓ usullarning o'zaro bog'liqligi va qo'llash ketma-ketligi;
- ✓ natijalarning ishonchliligini baholash yoki tekshirish usullari;
- ✓ tanlangan metodologiyaning kutilayotgan ilmiy natijalarni olish imkoniyati aks ettiriladi.

7. Kutilayotgan ilmiy yangilik. Ushbu bo'limda rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti natijasida olinishi kutilayotgan yangi ilmiy natijalar va ularning mavjud ilmiy bilim yoki yechimlardan farqi ochib beriladi. Taqdimotda tadqiqot natijalari yakunlangan natija shaklida emas, kutilayotgan ilmiy natija sifatida bayon etiladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ olinishi kutilayotgan asosiy yangi ilmiy natijalar;
- ✓ ular hal etadigan ilmiy masalalar;
- ✓ natijalarning mavjud bilim, usul, model, nazariya yoki boshqa yechimlardan farqi;
- ✓ kutilayotgan yangilikning tadqiqot vazifalari bilan bog'liqligi;
- ✓ kutilayotgan natijalarning avvalgi PhD va boshqa tadqiqot natijalaridan

farqi;

- ✓ ilmiy yangilikni olish uchun asos bo'luvchi metodologik yondashuv aks ettiriladi.

8. Kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu bo'limda kutilayotgan natijalarning ilmiy ahamiyati va amaliy ahamiyati alohida ochib beriladi. Ilmiy ahamiyat tadqiqot natijalari mavjud ilmiy bilim, nazariya, metodologiya, usul yoki yondashuvlarni qanday to'ldirishi yoki rivojlantirishi bilan ifodalanadi. Amaliy ahamiyat da esa kutilayotgan natijalardan qaysi soha, jarayon, texnologiya, boshqaruv tizimi yoki boshqa amaliy faoliyatda foydalanish mumkinligi ko'rsatiladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ kutilayotgan natijalarning ilmiy ahamiyati;
- ✓ ularning mavjud ilmiy bilim, nazariya, usul yoki yondashuvlarni rivojlantirishdagi o'rni;
- ✓ kutilayotgan natijalarning amaliy ahamiyati;
- ✓ natijalardan foydalanish mumkin bo'lgan soha, jarayon yoki obyekt;
- ✓ tegishli hollarda natijalarni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlari;
- ✓ ilmiy va amaliy ahamiyatning kutilayotgan ilmiy yangilik bilan bog'liqligi aks ettiriladi.

9. Tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlari va yakuniy asoslash. Ushbu bo'limda doktorantura tadqiqotining uch yil davomida qanday ilmiy strategiya asosida amalga oshirilishi, asosiy bosqichlari, har bir bosqichda bajariladigan ishlar va olinishi kutilayotgan oraliq natijalar ko'rsatiladi. Doktorantura talabgori dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirish tajribasiga ega ekanligi inobatga olinib, rejada faqat "adabiyotlar o'rganiladi — tajribalar o'tkaziladi — dissertatsiya yoziladi" kabi umumiy masalalar emas, balki ilmiy vazifalardan kutilayotgan yangilikka bo'lgan mantiqiy ketma -ketlik aks ettiriladi. Yakuniy bosqichda dissertatsiya matnini tayyorlash bilan cheklanmasdan, olingan natijalarni umumlashtirish, ilmiy yangilik va ahamiyatni asoslash, dissertatsiya bajarilgan muassasada dissertatsiyani dastlabki ekspertizadan o'tkazish, dissertatsiyani himoyaga taqdim etish hamda Ilmiy kengashda himoya qilish jarayonlari nazarda tutiladi.

Mazkur bo'limda:

- ✓ tadqiqotni amalga oshirishning umumiy ilmiy strategiyasi;
- ✓ tadqiqotning asosiy bosqichlari;
- ✓ har bir bosqichda bajariladigan asosiy ilmiy ishlar;
- ✓ vazifalarning uch yillik davr bo'yicha taqsimlanishi;
- ✓ har bir bosqich yakunida kutilayotgan oraliq ilmiy natijalar;
- ✓ kutilayotgan ilmiy yangiliklarning shakllanish bosqichlari;
- ✓ bosqichlar va natijalarning o'zaro mantiqiy bog'liqligi;
- ✓ natijalarni umumlashtirish va dissertatsiyani yakunlash;
- ✓ dissertatsiya bajarilgan muassasada dissertatsiyani dastlabki ekspertizadan o'tkazish;
- ✓ dissertatsiyani himoyaga taqdim etish va Ilmiy kengashda himoya qilish;
- ✓ tadqiqotni belgilangan uch yillik muddatda amalga oshirish imkoniyati;
- ✓ tadqiqot konsepsiyasi, metodologiyasi, kutilayotgan natijalari va amalga oshirish strategiyasining umumiy muvofiqligi aks ettiriladi.

Doktorantura (DSc) taqdimotining tarkibiy bo'limlari tuzilishini shakllantirish bo'yicha namun a mazkur Uslubiy ko'rsatmaning 2-ilovasida keltiriladi.

4-BOB. TAYANCH DOKTORANTURA (PhD) VA DOKTORANTURA (DSc)GA TALABGORLARNING ILMIY TADQIQOT ISHI TAQDIMOTINI BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI

Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholashda uning taqdimot mazmuniga qo'yilgan talablarni qay darajada bajargani, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi hamda uni mustaq il tushuntirib va asoslab bera olishi inobatga olinadi. Baholash oldindan belgilangan mezonlar asosida ball qo'yilishi orqali amalga oshiriladi. Bunda, taqdimot mazmunida nazarda tutilmagan qo'shimcha talablar yoki baholash shartlaridan foydalanilmaydi. Tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda talabgorlarni baholash ularning ilmiy tayyorgarlik darajasi va mazkur Uslubiy

ko'rsatmaning 2 va 3 -boblarida belgilangan taqdimot mazmunidan kelib chiqib alohida amalga oshiriladi. Tayanch doktorantura (PhD)ga qabulda talabgorni baholashda ilmiy muammoni aniqlash va uning dolzarbligini asoslash, mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish, maqsad va vazifalarni shakllantirish, tadqiqot obyekti va predmetini belgilash, metodologiya va usullarni asoslash, tadqiqot g'oyasi va uning ilmiy ahamiyatini ifodalash, tadqiqotni amalga oshirishni rejalashtirish hamda taqdimot mazmunini og'zaki asoslab berish qobiliyati e'tiborga olinadi. Doktorantura (DSc)ga qabulda talabgorni baholashda avvalgi ilmiy natijalarning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi, ilmiy muammoning zamonaviy holatini tanqidiy tahlil qilishi, tadqiqot konsepsiyasini shakllantirishi, metodologik yondashuvlarni asoslashi, kutilayotgan ilmiy yangilikni aniq ifodalashi, uning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berishi, tadqiqotni amalga oshirish strategiyasini belgilashi hamda o'z ilmiy pozitsiyasini asoslab berishi kabi qobiliyatlari baholanadi. Talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti 100 ballik tizimda baholanadi. Baholash mezonlari taqdimotning tegishli tarkibiy bo'limlari hamda og'zaki taqdimot va savol-javob natijalarini qamrab oladi. Har bir mezon bo'yicha baholanadigan ko'rsatkichlar, ball berish shartlari va eng yuqori ball oldindan belgilanadi. Har bir komissiya a'zosi talabgorni mustaqil ravishda, alohida baholab, tegishli baholash jadvalini to'ldiradi. Baholash jarayonida komissiya a'zolari bir-biriga ta'sir o'tkazishi maqsadga muvofiq emas. Har bir ko'rsatkich bo'yicha ball tegishli shartlarning bajarilganligi holatidan kelib chiqib belgilanadi. Ko'rsatkich uchun nazarda tutilgan eng yuqori balldan kam ball qo'yilganda, komissiya a'zosi tomonidan bajarilmagan shart yoki ballning kamaytirilishiga asos bo'lgan aniq holat baholash jadvalida qayd etiladi. Komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan umumiy ballar asosida talabgorning taqdimot bo'yicha yakuniy natijasi ularning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. Baholash yakunlanganidan so'ng talabgorga uning taqdimot bo'yicha yakuniy balli ma'lum qilinadi. Baholash jadvallari va natijalar qo'yilgan ballni mezonlar kesimida keyinchalik tekshirish imkonini beradigan shaklda rasmiylashtiriladi va belgilangan tartibda saqlanadi. Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorlar uchun baholash mezonlari, ko'rsatkichlari, ball berish shartlari va ularning taqsimoti mazkur Uslubiy ko'rsatmaning 3-ilovasida, doktorantura (DSc)ga talabgorlar uchun esa 4-ilovasida keltirilgan.

5-BOB. TAQDIMOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI

Tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga talabgorlarning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tashkil etish va o'tkazishda barcha talabgorlar uchun teng sharoit yaratish, yagona yondashuvni qo'llash, baholashning xolisligi va jarayonning shaffofligini ta'minlash asosiy tamoyillar hisoblanadi. Taqdimot o'tkaziladigan sana, vaqt, joy, uning formati, taqdimot va savol-javob uchun ajratiladigan vaqt hamda tashkiliy shartlar oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilot tomonidan oldindan belgilanib, talabgorlarga ma'lum qilinadi. Barcha talabgorlarga taqdimot qilish va komissiya savollariga javob berish uchun teng tashkiliy sharoit hamda bir xil vaqt ajratiladi.

Talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini har tomonlama baholash ikki bosqichda tashkil etiladi: birinchi bosqichda komissiya a'zolari hujjat topshirish jarayonida taqdim etilgan materiallar bilan oldindan tanishib, mazkur Uslubiy ko'rsatmaning tegishli 3 va 4 - ilovasida belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha dastlabki qaydlar va ballarni shakllantiradi; ikkinchi bosqichda talabgorning og'zaki taqdimoti va savol - javob natijalari baholanadi hamda komissiya a'zosi barcha baholash ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda baholash jadvalini yakuniy rasmiylashtiradi. Har bir komissiya a'zosi talabgorning taqdimoti va savol-javob natijalarini mustaqil baholaydi. Savollar talabgorlarning tadqiqot mavzulari xususiyatidan kelib chiqib farq qilishi mumkin, biroq ularning mazmuniy yo'nalishi va murakkablik darajasi barcha talabgorlar uchun bir xil darajada bo'lishi tavsiya etiladi.

6-BOB. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Mazkur Uslubiy ko'rsatmada nazarda tutilgan talablar ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash jarayonida qo'llanish uchun tavsiya etiladi. Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar tomonidan qabul jarayoni boshlanishidan oldin talabgorlarga taqdimotning mazmuniga qo'yiladigan talablar, uni o'tkazish tartibi hamda baholash mezonlari bilan tanishish imkoniyatini yaratiladi. Mazkur Uslubiy ko'rsatmaning ilovalarida tayan doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) uchun baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va ball berish shartlari, shuningdek taqdimotning tarkibiy bo'limlarini shakllantirish bo'yicha namunalar keltirilgan. Taqdimotni baholash natijalari yuzasidan apellyatsiya shikoyatlari, shuningdek mazkur Uslubiy ko'rsatmada tartibga solinmagan qabul jarayoni bilan bog'liq masalalar oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasidagi va tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Tuzuvchi:



D.Doniyorov

D.Shamiyev

U.Jabborov

D.Anorboyev



Tashkilot nomi

Tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar

Tayanch doktorantura (PhD)ga qabul uchun

Tadqiqot mavzusi



Talabgor: F.I.O.



Qabul shakli: Tayanch doktorantura (PhD)



Ilmiy ixtisoslik: shifri va nomi



Tashkilot: oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilot nomi



Taqdimot sanasi: 2026-yil “__” _____

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi

Ushbu bo'limda tadqiqotga asos bo'layotgan aniq ilmiy muammo yoki masala, uni hozirgi bosqichda o'rganish zarurati hamda mavzu bo'yicha mavjud ilmiy natijalar qisqacha tahlil qilinadi

Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Aniq ilmiy muammo yoki masala

Tadqiqotga asos bo'layotgan aniq muammo yoki masala ifodalanadi



Mavzuning dolzarbligini tasdiqlovchi dalillar

Mavzuning dolzarbligini tasdiqlovchi asosiy ilmiy, statistik, tahliliy yoki boshqa dalillar ko'rsatiladi



Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda erishilgan asosiy natijalar

Mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda erishilgan asosiy natijalar qisqacha tahlil qilinadi



Yetarlicha o'rganilmagan yoki hal etilmagan jihatlar

Tadqiqotning yetarlicha o'rganilmagan yoki hal etilmagan jihatlar ajratib ko'rsatiladi



Yangi tadqiqotni amalga oshirish zarurati

Qo'shimcha ilmiy tadqiqotni amalga oshirish zarurati asoslanadi



Asosiy manbalarga qisqa havolalar

Foydalanilgan asosiy manbalarga qisqa havolalar aks ettiriladi

Baholashda e'tibor qaratiladi



Ilmiy muammoni belgilash

- aniq ilmiy muammo yoki masala ifodalangan
- muammoning asosiy obyekti, mazmuni yoki hal etilgan bog'liqligi tasdiqlangan
- hal etilmagan jihatlar yoki cheklovlar belgilangan
- qo'shimcha ilmiy tadqiqot zarurati asoslangan



Mavzuning dolzarbligini asoslash

- dolzarblikni tasdiqlovchi dalillar asoslangan
- ma'lumot manbalari tasdiqlangan
- dalillarning tadqiqot muammosi bilan bog'liqligi asoslangan
- tadqiqotni amalga oshirish ahamiyati asoslangan



O'rganilganlik darajasini tahlil qilish

- mahalliy tadqiqotlar natijalari asoslangan
- xorijiy tadqiqotlar natijalari asoslangan
- manbalarning mavzuga daxldorligi ko'rsatilgan
- asosiy natijalar yoki yondashuvlar ajratilgan
- mavjud yondashuvlar o'zaro taqqoslangan
- umumlashtiruvchi ilmiy xulosa shakllantirilgan



Hal etilmagan masalani belgilash

- yetarlicha o'rganilmagan aniq masala belgilangan
- masala ilmiy manbalar tahlildan kelib chiqqan
- uning asosiy ilmiy muammo bilan bog'liqligi ifodalangan
- qaysi jihat yetarlicha o'rganilmaganligi ifodalangan
- masala tadqiqot doirasiga mos jihatdan ifodalangan
- mazkur masala tadqiqot maqsadini shakllantirishga asos bo'lgan



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor muammoning dolzarbligi, mavjud ilmiy natijalarning tahlili va hal etilmagan masalaning aniq ajratilishiga qaratiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Ushbu bo'limda tadqiqot maqsadi ilmiy muammodan kelib chiqib shakllantiriladi va tadqiqot natijasida erishilishi ko'zda tutilayotgan asosiy ilmiy natija yo'nalishini ifodalaydi

Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqotning aniq va umumlashtiruvchi maqsadi
Tadqiqotning aniq va umumlashtiruvchi maqsadi ifodalanadi



Asosiy ilmiy vazifalar
Maqsadga erishishga qaratilgan asosiy ilmiy vazifalar belgilanadi



Vazifalar ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi
Vazifalarning ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi



Kutilayotgan asosiy ilmiy natija (yo'nalish)
Tadqiqot natijasida erishilishi ko'zda tutilayotgan asosiy ilmiy natija yo'nalishi ifodalanadi



Tadqiqot maqsadi va vazifalarining mosligi
Tadqiqot maqsadi va vazifalari tadqiqot mavzusi bilan mantiqiy mosligi aks ettiriladi

Baholashda e'tibor qaratiladi



Tadqiqot maqsadining shakllantirilishi

- aniq ilmiy muammo yoki masaladan kelib chiqib shakllantirilgan
- masad ilmiy muammoga muvofiq ifodalangan
- maqsad kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishini ifodalagan
- tadqiqot mavzusining takrori emas



Vazifalarning shakllantirilishi

- vazifalar maqsadga erishishga qaratilgan
- vazifalar ilmiy mazmunga ega bo'lgan
- vazifalar bir-birini takrorlamagan
- vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda berilgan



Vazifalarning o'zaro bog'liqligi

- vazifalar o'zaro mantiqiy bog'langan
- vazifalar ketma-ketligi asoslangan



Kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishi

- kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishi aniqlangan
- natija tadqiqot maqsadiga muvofiq ifodalangan



Tadqiqot maqsadi va vazifalarining o'zaro mosligi

- maqsad va vazifalar tadqiqot mavzusi bilan mantiqiy mosligi aks ettirilgan



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor ilmiy muammodan kelib chiqqan holda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilganligi, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi va kutilayotgan asosiy ilmiy natija yo'nalishining aniqligiga qaratiladi.

Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi

Ushbu bo'limda tadqiqot obyekti sifatida tadqiqot yo'naltirilgan jarayon, tizim, hodisa, texnologiya, munosabat yoki boshqa ilmiy soha tushuniladi.

Tadqiqot predmeti sifatida esa ob'ekt doirasida bevosita o'rganiladigan muayyan xususiyat, bog'liqlik, mexanizm, jarayon yoki usul tushuniladi

Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqot obyekti

Tadqiqot yo'naltirilgan jarayon, tizim, hodisa, texnologiya, munosabat yoki boshqa ilmiy soha ko'rsatiladi



Tadqiqot predmeti

Obyekt doirasida bevosita o'rganiladigan muayyan xususiyat, bog'liqlik, mexanizm, jarayon yoki usul ko'rsatiladi



Tadqiqotning qamrovi

Tadqiqotning hududi, vaqtinchalik va sohaviy qamrovi ko'rsatiladi



Tadqiqot davri

Tadqiqot olib boriladigan boshlanish va tugatish davri ko'rsatiladi



Ma'lumotlar va manbalar

Tadqiqotda foydalaniladigan asosiy ma'lumotlar, manbalar yoki namunalar ko'rsatiladi



Cheklovlar (agar mavjud bo'lsa)

Tadqiqot doirasidagi asosiy cheklovlar yoki shartlar ko'rsatiladi

Baholashda e'tibor qaratiladi



Tadqiqot obyekti aniq belgilangan

- obyekt tadqiqot yo'naltirilgan jarayon, tizim, hodisa, texnologiya, munosabat yoki boshqa ilmiy soha sifatida belgilangan
- obyekt doirasida zarur omillar yoki tarkibiy qismlar ko'rsatilgan
- obyekt belgilash mantiqan asoslangan



Tadqiqot predmeti aniq ifodalangan

- predmet obyekt doirasida bevosita o'rganiladigan muayyan xususiyat, bog'liqlik, mexanizm, jarayon yoki usul sifatida ifodalangan
- predmetning obyekt bilan bog'liqligi ko'rsatilgan
- predmet tanlanishining ilmiy asosi ko'rsatilgan



Tadqiqotning qamrovi aniq ko'rsatilgan

- hududiy qamrov ko'rsatilgan
- vaqtinchalik qamrov ko'rsatilgan
- sohaviy qamrov ko'rsatilgan



Tadqiqot davri aniq belgilangan

- tadqiqot boshlanish va tugatish davri ko'rsatilgan
- davr tanlanishining asosi ko'rsatilgan



Ma'lumotlar va manbalar aniq ko'rsatilgan

- asosiy ma'lumotlar, manbalar yoki namunalar ko'rsatilgan
- ularning ishonchiligi yoki dolzarbligi asoslangan



Cheklovlar (agar mavjud bo'lsa) ko'rsatilgan

- tadqiqot doirasidagi asosiy cheklovlar yoki shartlar ko'rsatilgan



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi, ularning aniq belgilanganligi hamda o'zaro mantiqiy bog'liqligiga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari

Ushbu bo'limda tadqiqot qanday ilmiy yondashuv asosida
va qaysi usullar orqali amalga oshirilishi ko'rsatiladi

Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Ilmiy yondashuvlar

Tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy ilmiy yondashuvlar ko'rsatiladi



Tadqiqot usullari

Tadqiqotda qo'llaniladigan asosiy nazariy va amaliy usullar keltiriladi



Ma'lumotlar manbalari

Tadqiqotda foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari va ularning xarakteri ko'rsatiladi



Ma'lumotlar yig'ish usullari

Ma'lumotlar qanday usulda yig'ilishi ko'rsatiladi



Ma'lumotlar tahlil qilish usullari

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usullari ko'rsatiladi



Tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot qaysi bosqichlarda va qanday ketma-ketlikda amalga oshirilishi ko'rsatiladi

Baholashda e'tibor qaratiladi



Ilmiy yondashuvlarning asoslanganligi

- tadqiqotda qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar asoslangan
- yondashuvlar tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos
- yondashuvlar tanlovining ilmiy maqsadga muvofiqligi asoslangan



Usullarning maqsadga muvofiqligi

- usullar tadqiqot maqsad va vazifalariga mos tanlangan
- usullarning qo'llanishi asoslangan
- nazariy va amaliy usullar uyg'unligi ta'minlangan



Ma'lumotlar manbalari va ishonchliligi

- ma'lumotlar manbalari yetarli va dolzarb
- manbalar tanlovi asoslangan
- ma'lumotlarning ishonchliligi ta'minlangan



Ma'lumotlar yig'ish usullarining asoslanganligi

- ma'lumotlarni yig'ish usullari to'g'ri tanlangan
- usullarning qo'llanishi asoslangan
- ma'lumotlar to'liqligi va ishonchliligi ta'minlangan



Tahlil usullarining to'g'ri qo'llanilishi

- ma'lumotlarni qayta ishlash usullari to'g'ri qo'llangan
- statistik yoki boshqa tahlil usullari asoslangan
- tahlil usullarining natijalarni ishonchli talqin qilishga imkoniyati ta'minlangan



Metodologiyaning izchilligi va to'liqligi

- tadqiqot metodologiyasi izchil va mantiqiy asoslangan
- metodologiya tadqiqotning barcha bosqichlarini qamrab olgan
- metodologiyaning to'liqligi ta'minlangan



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor tadqiqotda qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar, usullar, ma'lumotlar manbalari, ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish usullarining o'zaro mantiqiy bog'liqligiga qaratiladi.

Tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati

Tadqiqot g'oyasida talabgorning aniqlangan ilmiy muammoni qaysi yondashuv asosida o'rganishi, qanday bog'liqlikni tekshirishi, mavjud yondashuvning qaysi jihatini rivojlantirishi yoki qanday ilmiy yechimni asoslash haqidagi fikri yoritiladi

Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqot g'oyasining mazmuni

Talabgorning ilmiy g'oyasining umumiy mazmuni va yo'nalishi ko'rsatiladi



Muammoni o'rganish yondashuvi

Aniqlangan ilmiy muammoni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy yondashuv ko'rsatiladi



Tekshiriladigan bog'liqlik

Tadqiqotda tekshiriladigan asosiy bog'liqlik yoki munosabat ko'rsatiladi



Mavjud yondashuvning rivojlantiriladigan jihat

Mavjud ilmiy yondashuvning rivojlantiriladigan yoki takomillashtiriladigan jihat ko'rsatiladi



Ilmiy yechimni asoslash

Tadqiqot doirasida asoslanadigan yangi ilmiy yechim, model, usul yoki texnologiya ko'rsatiladi



Kutilayotgan ilmiy natijalar

Tadqiqot natijasida erishilishi ko'zda tutilayotgan asosiy ilmiy natijalar ko'rsatiladi

Baholashda e'tibor qaratiladi



G'oyaning ilmiy yangiligi va dolzarbligi

- g'oya aniqlangan ilmiy muammoga qaratilganligi
- g'oyaning ilmiy yangiligi
- g'oyaning ilmiy dolzarbligi va zarurligi



Yondashuvning asoslanganligi

- muammoni o'rganish yondashuvi to'g'ri tanlanganligi
- yondashuvning ilmiy asoslanganligi
- yondashuvning maqsadga muvofiqligi



Bog'liqlikni tekshirishning aniqligi

- tekshiriladigan bog'liqlik yoki munosabat aniq ifodalanganligi
- tekshiriladigan bog'liqlikning ilmiy asoslanganligi
- bog'liqlikni tekshirish usullarining mosligi



Mayjud yondashuvni rivojlantirish darajasi

- rivojlantiriladigan jihat aniq belgilanganligi
- rivojlantirishning ilmiy asoslanganligi
- rivojlantirishning kutilayotgan samarasi asoslanganligi



Ilmiy yechimning asoslanganligi

- taklif etilayotgan ilmiy yechim aniq ifodalanganligi
- yechimning ilmiy asoslanganligi
- yechimning amaliy qo'llanilish imkoniyatlari ko'rsatilganligi



Kutilayotgan ilmiy natijalarning ahamiyati


- kutilayotgan ilmiy natijalar aniq ifodalanganligi
- natijalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi
- natijalarning amaliy qo'llanilish imkoniyatlari



Eslatma: ushbu bo'limda tadqiqot g'oyasi mantiqiy, ilmiy asoslangan va maqsadga muvofiq ravishda yoritilishi, kutilayotgan ilmiy ahamiyati aniq ko'rsatilishi kerak.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ish rejasi

Ushbu bo'limda ishning asosiy bosqichlari va ularning mazmuni ko'rsatiladi



Eslatma: ushbu slaydda tadqiqot ishining bosqichlari, ularning mazmuni hamda baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar ko'rsatiladi.

Tadqiqotni amalga oshirish imkoniyati va yakuniy asoslash

Ushbu bo'limda tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur resurslar mavjudligi, ishlarni rejalashtirilgan muddatda bajarish imkoniyati, asosiy cheklovlar va tadqiqotning ilmiy asoslanganligi borasidagi ma'lumotlar taqdim etiladi

Tadqiqotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqot uchun zarur resurslar

Tadqiqotni amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik resurslar va tadqiqot bazasi



Laboratoriya va texnik baza

Mavjud laboratoriyalar, uskuna va dasturiy ta'minotlar haqida ma'lumot



Ma'lumotlar manbalari

Tadqiqotda foydalaniladigan ma'lumotlar manbalari va ularning mavjudligi



Tadqiqotni amalga oshirish muddati

Tadqiqot ishlarini bosqichma-bosqich bajarish dalolatlari va rejalashtirilgan muddatlar



Cheklovlar va xavflar

Tadqiqotni amalga oshirishdagi asosiy cheklovlar va ularni bartaraf etish yo'llari



Metodologik va nazariy asos

Tadqiqot metodologiyasi, yondashuvlar, nazariy asoslar va ularning ishonchliligi



Yakuniy ilmiy asos

Tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va kutilayotgan ilmiy yangiligi

Baholashda e'tibor qaratiladi



Resurslar va tadqiqot bazasining yetarliligi

- tadqiqot uchun zarur resurslar to'liq va yetarli ekani



Asosiy vosita va resurslarning dolzarbligi

- vositalar va resurslar tadqiqot maqsadiga mos va funksional ekani



Ma'lumotlar manbalarining ishonchliligi

- ma'lumotlar manbalari ilmiy jihatdan ishonchli va yetarli ekani



Rejalashtirish va muddatlarning realistikligi

- ishlar rejasi mantiqiy, bosqichlar izchil va muddatlar real ekani



Xavflar tahlili va ularni boshqarish

- cheklovlar aniq ko'rsatilgan va ularni bartaraf etish choralari asoslangan ekani



Metodologik yondashuvning asoslanganligi

- metodologiya ilmiy asoslangan va maqsadga mos tanlangan ekani



Yakuniy ilmiy asosning ishonchliligi

- kutilayotgan natijalar ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega ekani



Eslatma: ushbu bo'limda resurslar yetarliligi, amalga oshirish imkoniyati, cheklovlar va ilmiy asoslanganlik yoritilishi zarur. Yakuniy asos tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi.



Tashkilot nomi

Tadqiqot mavzusi va talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar

Doktorantura (DSc)ga qabul uchun

Tadqiqot mavzusi



Talabgor:
F.I.O.



Ilmiy ixtisoslik:
shifri va nomi



Taqdimot sanasi:
20__-yil “__” ____



Avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi

Ushbu bo'limda talabgorning avvalgi ilmiy faoliyati doirasida olingan, rejalashtirilayotgan tadqiqotga bevosita daxldor asosiy ilmiy natijalari, ular orqali hal etilgan ilmiy masalalar hamda yangi tadqiqot muammosiga o'tishdagi uzviylik yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Avvalgi asosiy ilmiy natijalar

Talabgor tomonidan avvalgi ilmiy faoliyat davomida olingan, rejalashtirilayotgan tadqiqotga bevosita daxldor asosiy ilmiy natijalar yoritiladi



Avvalgi natijalar orqali hal etilgan ilmiy masalalar

Olingan natijalar yordamida qaysi ilmiy masalalar hal etilgani va ular orqali nimalarga erishilgani ko'rsatiladi



Yangi ilmiy muammoga o'tish

Avvalgi natijalar yangi ilmiy muammoga qanday olib kelgani, davom ettirilishi zarur bo'lgan jihatlar asoslanadi



Yangi tadqiqot uchun ilmiy asos va tajriba

Talabgorning avvalgi tajribasi, bilim va ko'nikmalari yangi tadqiqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishi ko'rsatiladi



Avvalgi ilmiy natijalar



Hal etilgan masalalar



Yangi ilmiy muammoga o'tish



Ilmiy asos va tajriba



Yangi tadqiqotga uzviy bog'liqlik



Baholashda e'tibor qaratiladi



Avvalgi asosiy ilmiy natijalar

asosiy natijalar ajratilgan, rejalashtirilayotgan tadqiqotga daxldor va ilmiy mazmunda bayon etilgan



Avvalgi natijalar orqali hal etilgan ilmiy masalalar

hal etilgan ilmiy masalalar va ularning ilmiy yoki amaliy ahamiyati asoslangan



Yangi ilmiy muammoga o'tish

yangi ilmiy masala avvalgi natijalardan mantiqan kelib chiqqan va tadqiqot avvalgi ishlarning takrori emas



Yangi tadqiqot uchun ilmiy asos va tajriba

mavzu bo'yicha tegishli ilmiy tajriba hamda uning yangi tadqiqotni amalga oshirishdagi ahamiyati asoslangan



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor avvalgi natijalarning mantiqiy davomiyligini ta'minlash, yangi ilmiy muammoga o'tishdagi uzviylikni asoslash hamda doktorantning ilmiy salohiyati va tajribasini namoyon etishga qaratiladi.





Ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlari

Ushbu bo'limda tanlangan ilmiy muammo bo'yicha hozirgi kunda erishilgan asosiy yutuqlar, mavjud bilim va yondashuvlar tahlil qilinadi hamda hal etilmagan jihatlar aniqlanadi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Ilmiy muammo va uning dolzarbligi

Tadqiqotga asos bo'layotgan aniq ilmiy muammo yoki masala hamda uning dolzarbligini tasdiqlovchi dalillar yoritiladi



Zamonaviy ilmiy yondashuvlar va mavjud natijalar

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda mavzu bo'yicha erishilgan asosiy ilmiy natijalar, yondashuvlar va tendensiyalar ko'rsatiladi



Hal etilgan masalalar

Ilgari bajarilgan tadqiqotlar orqali qaysi ilmiy masalalar hal etilgani qisqacha bayon etiladi



Hal etilmagan yoki yetarlicha o'rganilmagan jihatlar

Mavjud bilimlar chegarasi, hali yechim topilmagan yoki yetarlicha o'rganilmagan masalalar aniqlanadi



Yangi tadqiqot zarurati

Hal etilmagan jihatlar asosida yangi tadqiqotni amalga oshirish zarurati asoslantiriladi



Asosiy manbalar

Foydalanilgan muhim manbalar va ularning qisqacha tahlili ko'rsatiladi



Baholashda e'tibor qaratiladi



Muammoning dolzarbligi va asoslanganligi

tanlangan muammoning ilmiy va amaliy ahamiyati, dalillar bilan asoslanganligi



Zamonaviy holatni tahlil qilish sifati

mavjud ilmiy yutuqlar va yondashuvlar yetarli darajada tahlil qiliganligi



Hal etilmagan jihatlarini aniqlash

mavjud bilimlar chegarasi to'g'ri aniqlanganligi, bo'shliqlar asosli ko'rsatilganligi



Yangi tadqiqot zaruratining asoslanganligi

hal etilmagan jihatlardan kelib chiqib, yangi tadqiqotga ehtiyoj mantiqan asoslanganligi



Foydalanilgan manbalar va tahlil sifati

manbalar dolzarbligi, ishonchiligi hamda tahlilning chuqurligi



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor muammoning zamonaviy holatini real manbalar asosida tahlil qilishga, hal etilmagan jihatlarini aniqlashga hamda yangi tadqiqot zaruratini mantiqan asoslashga qaratiladi





Tadqiqot konsepsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari

Ushbu bo'limda rejalashtirilayotgan tadqiqotning ilmiy konsepsiyasi, asosiy maqsadi hamda maqsadga erishish uchun belgilangan asosiy vazifalar yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqot konsepsiyasi

Tadqiqotning umumiy ilmiy g'oyasi, yondashuv va asosiy tamoyillari, uni amalga oshirishga doir konseptual yondashuv bayon etiladi



Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqot davomida erishilishi ko'zda tutilayotgan asosiy ilmiy natija yoki kutilayotgan yechim aniq va umumlashtirilgan tarzda ifodalanadi



Maqsadga erishish yo'nalishi

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun belgilangan ilmiy yo'nalishlar va ularning o'zaro bog'liqligi ko'rsatiladi



Asosiy vazifalar

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun bajarilishi rejalashtirilgan asosiy ilmiy vazifalar ketma-ket va mantiqiy izchillikda keltiriladi



Vazifalar o'zaro bog'liqligi

Belgilangan vazifalarning bir-birini to'ldirishi, mantiqiy ketma-ketligi hamda maqsadga qanday hissa qo'shishi yoritiladi



Kutilayotgan ilmiy natija

Tadqiqot yakunida olinishi kutilayotgan asosiy ilmiy yoki amaliy natija haqida umumiy ma'lumot beriladi



Ilmiy g'oya
va yondashuv



Asosiy
maqsad



Asosiy
vazifalar



Vazifalar o'zaro
bog'liqligi



Kutilayotgan
ilmiy natija



Baholashda e'tibor qaratiladi



Konsepsiyaning mantiqiyliigi va asoslanganligi

tadqiqot konsepsiyasi ilmiy asoslangan, izchil va tadqiqot mavzusiga mos darajada yoritilganligi



Maqsadning aniqligi va muvofiqligi

tadqiqot maqsadi aniq ifodalangan va vazifalar bilan uzviy bog'langanligi



Vazifalarning to'liqligi va izchilligi

belgilangan vazifalar maqsadga erishishni ta'minlaydigan darajada to'liq va mantiqan to'g'ri ketma-ketlikda belgilanganligi



Vazifalar o'zaro bog'liqligining ta'minlanganligi

vazifalar o'zaro uzviy bog'langan va tadqiqotning umumiy maqsadiga xizmat qilishi



Kutilayotgan natijaning asoslanganligi

kutilayotgan ilmiy natija real, erishish mumkin va tadqiqot maqsadiga mos ravishda belgilanganligi



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor tadqiqot konsepsiyasining izchilligi, maqsadning aniqligi, vazifalarning mantiqiy bog'liqligi va kutilayotgan natijaning asoslanganligiga qaratiladi.





Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi

Ushbu bo'limda tadqiqotning o'rganish doirasi, asosiy e'tibor qaratiladigan predmet hamda tadqiqot amalga oshiriladigan hudud, davr, ma'lumotlar va namunalar doirasi yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Tadqiqot obyekti

Tadqiqotda o'rganiladigan muayyan jarayon, hodisa, tizim yoki obyekt aniqlanadi



Tadqiqot predmeti

Tadqiqot obyekti doirasida bevosita o'rganiladigan muayyan xususiyatlar, omillar, bog'lanishlar yoki jarayonlar aniqlanadi



Obyekt va predmetning o'zaro bog'liqligi

Predmetning ob'ekt tarkibidagi o'rni va u bilan o'zaro bog'liqligi yoritiladi



Tadqiqot qamrovi

Tadqiqot amalga oshiriladigan hudud (geografik), davr (vaqt), ma'lumotlar manbalari, namunalar yoki kuzatuvlar doirasi ko'rsatiladi



Obyekt



Predmet



O'zaro
bog'liqlik



Hudud



Davr



Ma'lumotlar
va namunalar



Qamrov



Baholashda e'tibor qaratiladi



Obyektning aniqligi va mosligi

tadqiqot obyekti ilmiy sohaga mos, aniq va yetarlicha asoslanganligiga



Predmetning fokuslanganligi

tadqiqot predmeti ob'ekt doirasida aniq belgilangan va o'rganishga yo'naltirilganligiga



O'zaro bog'liqlikning izchilligi

obyekt va predmet o'rtasidagi bog'liqlik izchil va mantiqan asoslanganligiga



Qamrovning asoslanganligi va yetarliligi

hudud, davr, ma'lumotlar va namunalar doirasi tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos, yetarli va asoslanganligiga



Amaliy imkoniyat va real tadbqiqiylik

belgilangan qamrov tadqiqotni amaliy jihatdan amalga oshirishga imkon berishiga



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor tadqiqot obyekti va predmetining aniq belgilanishi, ularning o'zaro bog'liqligi hamda tadqiqot qamrovining asoslanganligi va yetarliligiga qaratiladi





Tadqiqot metodologiyasi va usullari

Ushbu bo'limda tadqiqotni amalga oshirish uchun qabul qilingan metodologik yondashuv, qo'llaniladigan usullar majmui hamda ularning tanlanish asoslari yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Metodologik yondashuv

Tadqiqotning umumiy metodologik asoslari, yondashuv turi va ilmiy nuqtai nazar asoslari yoritiladi



Tadqiqot usullari majmui

Tadqiqotda qo'llaniladigan nazariy, empirik va eksperimental usullar to'plami tavsiflanadi



Usullarni tanlash asoslari

Tanlangan usullar tadqiqot maqsad va vazifalariga mosligi, ularni qo'llash zarurati hamda afzalliklari asoslanadi



Usullarni qo'llash ketma-ketligi

Usullarni qo'llash bosqichlari, ularning o'zaro bog'liqligi va mantiqiy tartibi ko'rsatiladi



Kutilayotgan natijalar va usullarning samaradorligi

Qo'llaniladigan usullar orqali erishiladigan kutilayotgan natijalar hamda ularning ishonchliligi va samaradorligi yoritiladi



Axborot manbalari va ma'lumotlar bazasi

Tadqiqotda foydalaniladigan asosiy ma'lumot manbalari, ma'lumotlar bazasi va ularning tavsifi keltiriladi



Yondashuv



Usullar majmui



Tanlash asoslari



Qo'llash ketma-ketligi



Kutilayotgan natijalar



Manbalar va ma'lumotlar bazasi



Baholashda e'tibor qaratiladi



Metodologik yondashuvning asoslanganligi

tadqiqot metodologiyasi ilmiy asoslangan, dolzarb va mavzuga mos yoritilganligi



Usullarning maqsad va vazifalarga mosligi

tanlangan usullar tadqiqot maqsadi va vazifalarini amalga oshirishga xizmat qilishi



Usullar majmuasining yetarliligi va uyg'unligi

usullar to'plami muammoni tadqiq etish uchun yetarli va o'zaro uyg'un shakllantirilganligi



Usullarni qo'llashning mantiqiyligi

usullarni qo'llash ketma-ketligi mantiqiy, izchil va asoslantirilganligi



Natijalarning ishonchliligi va samaradorligi

usullar orqali erishiladigan natijalar ilmiy ishonchli va samarali bo'lishi



Ma'lumotlar manbalarining yetarliligi

foydalaniladigan manbalar ishonchli, dolzarb va tadqiqot uchun yetarli darajada bo'lishi



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor metodologik yondashuvning asoslanganligi, usullarning maqsad va vazifalarga mosligi, ularning ketma-ketligi hamda kutilayotgan natijalar ishonchliligi va ma'lumot manbalari yetarliligiga qaratiladi.





Kutilayotgan ilmiy yangilik

Ushbu bo'limda tadqiqot natijasida olinishi kutilayotgan ilmiy yangiliklar, ularning mazmuni, ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyati yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Kutilayotgan ilmiy yangiliklarning mazmuni

Tadqiqot natijasida olinishi kutilayotgan yangi ilmiy bilimlar, yondashuvlar, tamoyillar yoki yechimlar tavsiflanadi



Yangiliklarning ilmiy asoslanganligi

Kutilayotgan yangiliklar ilmiy nazariyalar, mavjud bilimlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatiladi



Yangiliklarning ilmiy darajasi

Yangiliklarning nazariy yoki uslubiy jihatdan qanchalik yangi ekani, mavjud bilimlardan farqlanishi yoritiladi



Ilmiy va amaliy ahamiyati

Kutilayotgan yangiliklarning ilm-fan rivojiga qo'shadigan hissasi hamda amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlari ko'rsatiladi



Natijalarning verifikatsiya va tasdiqlanish yo'llari

Yangiliklarning ishonchligi va to'g'riligini tasdiqlash uchun rejalashtirilgan usullar hamda baholash mezonlari tavsiflanadi



Yangi g'oya
va yondashuv



Ilmiy asos
va dalillar



Kutilayotgan
yangiliklar



Ilmiy va amaliy
ahamiyat



Verifikatsiya va
tasdiqlash



Baholashda e'tibor qaratiladi



Yangiliklarning mazmuni va aniqligi

kutilayotgan yangiliklar aniq va tushunarli tarzda ifodalanganligi



Ilmiy asoslanganlik darajasi

yangiliklar mavjud ilmiy bilimlar va nazariyalar bilan uzviy bog'langanligi



Yangiliklarning ilmiy darajasi va yangiligi

tadqiqot natijasida olinadigan yangiliklarning ilmiy nuqtai nazardan qanchalik yangi ekani



Ilmiy va amaliy ahamiyati

yangiliklarning ilm-fan va amaliyot uchun ahamiyatli hamda qo'llanilish imkoniyatiga egaligi



Verifikatsiya va tasdiqlash imkoniyatlari

yangiliklarning ishonchligi va to'g'riligini tasdiqlash usullari asoslanganligi



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor kutilayotgan ilmiy yangiliklarning mazmuni, ilmiy asoslanganligi, ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularni verifikatsiya va tasdiqlash imkoniyatlariga qaratiladi.





Kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati

Ushbu bo'limda tadqiqot natijalarining ilm-fan rivojiga qo'shadigan hissasi hamda amaliyotda qo'llanilish imkoniyatlari va kutilayotgan foydalari yoritiladi



Taqdimotda ko'rsatiladigan ma'lumotlar



Ilmiy ahamiyat

Tadqiqot natijalarining ilmiy bilimlarni kengaytirish, mavjud nazariyalar va yondashuvlarni takomillashtirish, yangi ilmiy yo'nalishlar va tadqiqotlarga asos bo'lishdagi ahamiyati yoritiladi



Nazariy yangiliklarga qo'shiladigan hissa

Kutilayotgan natijalar orqali qo'lga kiritiladigan nazariy yangiliklar, ilmiy tushunchalar va qoidalar tizimiga qo'shiladigan hissasi ko'rsatiladi



Amaliy ahamiyat

Natijalarning amaliy sohalarida qo'llanilishi, jarayonlarni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va muammolarni hal etishda beradigan foydasi yoritiladi



Amaliyotda qo'llanilish sohalari

Tadqiqot natijalarining qaysi soha va tarmoqlarda, qaysi turdagi tashkilot va korxonalarda qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi



Kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samara

Natijalarning jamiyat uchun foydasi, iqtisodiy samaradorlik, resurslarni tejash, ekologik va ijtimoiy ta'siri yoritiladi



Natijalar ishonchliligi va barqarorligi

Kutilayotgan natijalarning ishonchliligi, takrorlanuvchanligi va amaliyotda barqaror qo'llanilish imkoniyatlari asoslanadi



Ilmiy bilimlar
kengayadi



Nazariy yangiliklar
kiritiladi



Amaliyotda
qo'llaniladi



Samaradorlik
oshadi



Barqaror va
foydali natija



Baholashda e'tibor qaratiladi



Ilmiy ahamiyatning darajasi

kutilayotgan natijalar ilm-fanga qo'shadigan hissasi va yangi bilimlar yaratish salohiyati



Nazariy yangilikning asoslanganligi

natijalarning nazariy yangilik darajasi va ilmiy asoslanganligi



Amaliy ahamiyat va qo'llanilish imkoniyati

natijalarning amaliyotda qo'llanilishi va muammolarni hal etishga xizmat qilishi



Amaliyotga joriy etish istiqbollari

natijalarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari va joriy etish mexanizmlarining mavjudligi



Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik

tadqiqot natijalarining iqtisodiy samarasi, resurslarni tejash va ijtimoiy foydasi



Natijalar ishonchliligi va barqarorligi

kutilayotgan natijalarning ishonchliligi, takrorlanuvchanligi va barqaror qo'llanilish imkoniyatlari



Eslatma: ushbu bo'limda asosiy e'tibor kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning nazariy yangilik darajasi, amaliyotda qo'llanilishi hamda kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga qaratiladi.





Tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlari va yakuniy asoslash

Ushbu bo'limda tadqiqotni samarali va bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi, reja-jadvali hamda kutilayotgan natijalarni yakuniy asoslash yoritiladi



Tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi



Tadqiqot maqsadiga samarali erishish uchun izchil, tizimli va dalillarga asoslangan yondashuv qo'llanadi. Strategiya ilmiy metodologiya, zamonaviy usullar, resurslar samaradorligi va natijalarning amaliyotga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Bosqichlar rejasi (3 yil)



1 1-bosqich

Tayyorlov bosqichi
(1–12 oy)

- Mavjud adabiyotlar va amaliy tajribalar tahlili
- Tadqiqot dizayni va metodologiyasini shakllantirish
- Ma'lumotlar manbalari va zarur ma'lumotlarni aniqlash
- Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va tizimlashtirish
- Dastlabki tahlillar va yondashuvlarni aniqlashtirish



2 2-bosqich

Asosiy tadqiqot bosqichi
(13–24 oy)

- Ma'lumotlarni yig'ish va eksperimental/empirik tadqiqotlarni amalga oshirish
- Tanlangan usullar bo'yicha tahlil va modellash
- Natijalarni solishtirish va baholash
- Ara natijalarni ilmiy muhokama qilish va takomillashtirish
- Tadqiqot yo'nalishini zaruratga ko'ra optimallashtirish



3 3-bosqich

Tadqiqotni yakunlash
va himoya bosqichlari
(25–36 oy)

- Natijalarni umumlashtirish va yakuniy xulosalarni shakllantirish
- Ilmiy yangilik va amaliy natijalarni rasmiylashtirish
- Dissertatsiyani dastlabki ekspertizadan o'tkazish va tuzatishlar kiritish
- Dissertatsiyani himoyaga taqdim etish
- Ilmiy kengashda himoya qilish

Tadqiqotni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash



Usuliy ta'minot
va boshqaruv



Malakali ilmiy
rahbar va jamoa



Zamonaviy uskuna,
dasturiy ta'minot va
ma'lumotlar bazalari



Ilmiy adabiyotlar
va ochiq ilmiy
ma'lumotlar



Hamkor tashkilotlar
va tashqi ekspertlar
yordami



Baholashda e'tibor qaratiladi



Strategiyaning mantiqiyliги va izchilligi
tadqiqot maqsadi, vazifalari va usullari bilan mosligi va uzviy bog'langanligi



Bosqichlarning asoslanganligi
bosqichlar ketma-ketligi, muddatlari va ularning maqsadga xizmat qilishi



Metod va usullarning adekvatligi
tanlangan usullar tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadiga mosligi



Resurslardan foydalanish samaradorligi
mavjud resurslar va imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalanish



Natijalarning ishonchliligi va verifikatsiyasi
natijalarni aniqlik, takrorlanuvchanlik va verifikatsiya qilish mexanizmlarining mavjudligi



Yakuniy asoslashning dalilliligi
kutilayotgan natijalar va ularning ilmiy-amaliy ahamiyatining yetarli asoslanganligi



Eslatma: ushbu bo'limda tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlar rejasi, zarur resurslar asoslantiriladi hamda kutilayotgan natijalar va ularning ilmiy-amaliy qiymati yakuniy dalillar bilan izohlanadi.



TAYANCH DOKTORANTURA (PhD)GA TALABGORNING ILMIY TADQIQOT ISHI TAQDIMOTINI BAHOLASH JADVALI

Talabgorning F.I.O.: _____

Ilmiy ixtisoslik: _____

Tadqiqot mavzusi: _____

Komissiya a'zosi: _____

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilmagan shart
1	Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi		20		
1.1	Ilmiy muammoni belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiq etiladigan aniq ilmiy muammo yoki masala ifodalangan; 2) muammo qaysi obyekt, jarayon yoki holat bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; 3) mavjud holatdagi hal etilmagan jihat yoki cheklovlar belgilangan; 4) qo'shimcha ilmiy tadqiqot o'tkazish zarurati asoslangan.	4		
1.2	Mavzuning dolzarbligini asoslash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) dolzarblikni tasdiqlovchi aniq ilmiy, statistik, tahliliy yoki boshqa dalillar keltirilgan; 2) keltirilgan ma'lumotning manbasi ko'rsatilgan; 3) dalil tadqiqot muammosi bilan bevosita bog'langan; 4) keltirilgan dalillar asosida tadqiqotni amalga oshirish ahamiyati ochib berilgan.	4		
1.3	Mavzuning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) mavzuga daxldor mahalliy tadqiqotlar natijalari keltirilgan; 2) xorijiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan; 3) tahlilga jalb qilingan manbalar tadqiqot mavzusiga bevosita daxldor; 4) mavjud tadqiqotlarning asosiy natija yoki yondashuvlari ajratilgan; 5) mavjud natija yoki yondashuvlar o'zaro taqqoslangan; 6) tahlil natijasida umumlashtiruvchi ilmiy xulosa shakllantirilgan.	6		
1.4	Etarlicha o'rganilmagan yoki hal etilmagan masalani belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) etarlicha o'rganilmagan aniq masala belgilangan; 2) mazkur masala mavjud ilmiy manbalar tahlilidan kelib chiqqan; 3) uning asosiy ilmiy muammo bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; 4) aynan qaysi jihat etarlicha o'rganilmaganini ifodalangan; 5) masala tayanch doktorantura tadqiqoti doirasida o'rganish mumkin bo'lgan	6		

№	Baholash mezoni va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilmagan shart
		hajmda belgilangan; 6) mazkur masala tadqiqot maqsadini shakllantirish uchun asos bo'lgan.			
2	Tadqiqot maqsadi va vazifalari		12		
2.1	Tadqiqot maqsadini shakllantirish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) bitta asosiy va umumlashtiruvchi maqsad belgilangan; 2) maqsad aniqlangan ilmiy muammoga muvofiq; 3) maqsad - erishilishi kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishini ifodalaydi; 4) tadqiqot maqsadi tadqiqot mavzusining takrori emas.	4		
2.2	Tadqiqot vazifalarini shakllantirish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) vazifalar maqsadga erishishga qaratilgan; 2) vazifalar ilmiy mazmunga ega; 3) vazifalar bir-birini takrorlamaydi; 4) vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda berilgan.	4		
2.3	Muammo, maqsad va vazifalarning o'zaro bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) maqsad - taqdimotda aniqlangan hal etilmagan ilmiy masaladan kelib chiqqan; 2) har bir asosiy vazifa belgilangan maqsadga xizmat qiladi; 3) tadqiqot muammosiga aloqador bo'lmagan vazifalar mavjud emas; 4) vazifalarning bajarilishi orqali maqsadga erishish mantiqan asoslangan.	4		
3	Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi		8		
3.1	Tadqiqot obyekti	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot obyekti aniq belgilangan; 2) tadqiqot obyekti mavzu va tadqiqot maqsadiga muvofiq.	2		
3.2	Tadqiqot predmeti	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) predmet obyektning bevosita tadqiq etiladigan muayyan jihatini ifodalaydi; 2) predmet tadqiqot maqsadiga muvofiq.	2		
3.3	Obyekt va predmetning o'zaro bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) obyekt va predmet mazmunan farqlangan; 2) predmet obyekt doirasida belgilangan.	2		
3.4	Tadqiqot qamrovi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib uning tegishli hududiy, vaqt, ma'lumotlar, tanlanma, tajriba yoki boshqa qamrovi belgilangan; 2) belgilangan qamrov uch yillik tayanch doktorantura tadqiqoti doirasida amalga oshirish mumkin bo'lgan hajmga muvofiq.	2		
4	Tadqiqot metodologiyasi va usullari		20		

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilmagan shart
4.1	Metodologik yondashuv	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqotni amalga oshirishning umumiy metodologik yondashuvi ko'rsatilgan; 2) yondashuv tadqiqot maqsadiga muvofiq; 3) tadqiqotning asosiy bosqichlari metodologik jihatdan o'zaro bog'langan; 4) yondashuvni tanlash asoslangan.	4		
4.2	Tadqiqot usullarini tanlash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan; 2) tanlangan usullar tadqiqot obyektiga muvofiq; 3) usullar tadqiqot predmetiga muvofiq; 4) usullar belgilangan maqsadga erishish imkonini beradi; 5) tadqiqotga daxldor bo'lmagan usullar keltirilmagan; 6) asosiy usullarni tanlash sababi tushuntirilgan.	6		
4.3	Vazifa – usul – natija bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy vazifalar uchun tegishli usullar belgilangan; 2) usulning qaysi vazifani hal etishda qo'llanilishi ko'rsatilgan; 3) usul orqali qanday ma'lumot yoki natija olinishi tushuntirilgan; 4) vazifa, usul va kutilayotgan natija o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud.	4		
4.4	Ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) zarur ma'lumotlar qanday olinishi ko'rsatilgan; 2) ma'lumotlarni qayta ishlash usuli belgilangan; 3) ma'lumotlarni tahlil qilish tartibi keltirilgan.	3		
4.5	Metodologiyani amalga oshirish imkoniyati	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) usullarni amalga oshirish uchun zarur asosiy ma'lumot, material yoki tadqiqot bazasi ko'rsatilgan; 2) asosiy vosita va imkoniyatlar belgilangan; 3) tanlangan metodologiyani tayanch doktorantura tadqiqoti doirasida amalga oshirish mumkinligi asoslangan.	3		
5	Tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati		15		
5.1	Tadqiqot g'oyasini shakllantirish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqotning asosiy g'oyasi aniq ifodalangan; 2) g'oya taqdimotda aniqlangan ilmiy masalaga qaratilgan; 3) nimani aniqlash, tekshirish, baholash yoki asoslash nazarda tutilayotgani ko'rsatilgan; 4) g'oyani tanlangan metodologiya orqali tadqiq etish mumkin; 5) tadqiqot g'oyasi vazifalar ro'yxatining takrori emas.	5		

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilmagan shart
5.2	G'oyaning mavjud tadqiqotlarga nisbatan o'rni (farqi)	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) mavjud ilmiy yondashuv yoki holat ko'rsatilgan; 2) taklif etilayotgan tadqiqotning farq qiluvchi yoki mavjud tadqiqotlarni to'ldiruvchi jihati ifodalangan; 3) mazkur farq ilmiy manbalar tahlili bilan bog'langan; 4) asoslanmagan «ilk bor» yoki «mutlaqo yangi» kabi ta'kidlar o'rniga aniq ilmiy farq ko'rsatilgan; 5) taklif etilayotgan tadqiqotning mavjud ishlar orasidagi o'rni (farqi) asoslangan.	5		
5.3	Kutilayotgan ilmiy ahamiyat	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot natijasida qaysi ilmiy bilim to'ldirilishi mumkinligi ko'rsatilgan; 2) qaysi ilmiy masalaga aniqlik kiritilishi ifodalangan; 3) kutilayotgan natijaning tegishli fan sohasi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan; 4) tadqiqotning ilmiy ahamiyati aniq mazmunda ifodalangan; 5) tegishli hollarda natijalarning keyingi tadqiqotlar yoki amaliyot uchun ahamiyati ko'rsatilgan.	5		
6	Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ish rejasi		10		
6.1	Asosiy tadqiqot bosqichlari	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqotning asosiy bosqichlari belgilangan; 2) bosqichlar o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan.	2		
6.2	Uch yillik davr bo'yicha rejalashtirish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy ilmiy ishlar uch yillik davr bo'yicha taqsimlangan; 2) yillar va bosqichlar o'rtasida mantiqiy davomiylik mavjud.	2		
6.3	Oraliq natijalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy bosqichlar yakunida kutilayotgan oraliq natijalar belgilangan; 2) oraliq natijalarning keyingi bosqichlardagi ishlar bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.	2		
6.4	Tadqiqotni yakunlash va himoya bosqichlari	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot natijalarini umumlashtirish va dissertatsiyani yakunlash bosqichi nazarda tutilgan; 2) dissertatsiya bajarilgan muassasada dissertatsiyani dastlabki ekspertizadan o'tkazish rejalashtirilgan; 3) dissertatsiyani himoyaga taqdim etish va Ilmiy kengashda himoya qilish bosqichi nazarda tutilgan.	3		
6.5	Rejani amalga oshirish imkonlari mavjudligi	Tadqiqot ishlari, dissertatsiyani yakunlash va himoya jarayonlarini belgilangan uch yillik muddatda amalga oshirish imkoniyati asoslangan bo'lsa — 1 ball, asoslanmagan bo'lsa — 0 ball.	1		
7	Tadqiqotni amalga oshirish imkoniyati va yakuniy asoslash		5		

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilmagan shart
7.1	Zarur imkoniyatlarni belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot uchun zarur asosiy ma'lumot, material, obyekt yoki tadqiqot bazasi ko'rsatilgan; 2) tadqiqot xususiyatiga muvofiq asosiy vosita yoki resurslar belgilangan.	2		
7.2	Amalga oshirish imkoniyatini baholash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) rejalashtirilgan asosiy ishlarni belgilangan muddatda bajarish imkoniyati asoslangan; 2) tadqiqot hajmi bilan mavjud yoki rejalashtirilayotgan imkoniyatlar o'zaro muvofiq.	2		
7.3	Tadqiqot taklifining yaxlitligi	Muammo → maqsad → vazifalar → obyekt va predmet → metodologiya → tadqiqot g'oyasi → ish rejasi o'rtasida mantiqiy muvofiqlik mavjud bo'lsa — 1 ball, jiddiy mantiqiy ziddiyat mavjud bo'lsa — 0 ball.	1		
8	Og'zaki taqdimot va savol-javob		10		
8.1	Ilmiy muammo, dolzarblik va o'rganilganlik darajasi bo'yicha savol	2 ball — savolga bevosita, mazmunan to'liq va asoslangan javob berilgan; 1 ball — asosiy javob berilgan, ammo muhim jihatlardan biri to'liq ochilmagan yoki asoslash etarli emas; 0 ball — javob berilmagan, savolga aloqador bo'lmagan ma'lumotlar asosida javob berilgan yoki talabgor taqdimotdagi fikrini tushuntirib bera olmagan.	2		
8.2	Tadqiqot maqsadi va vazifalari bo'yicha savol	2/1/0 ball — 8.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
8.3	Metodologiya va tadqiqot usullari bo'yicha savol	2/1/0 ball — 8.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
8.4	Tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati bo'yicha savol	2/1/0 ball — 8.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
8.5	Tadqiqot rejasi va uni amalga oshirish imkoniyati bo'yicha savol	2/1/0 ball — 8.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
JAMI			100		

DOKTORANTURA (DSc)GA TALABGORNING ILMIY TADQIQOT ISHI TAQDIMOTINI BAHOLASH JADVALI

Talabgorning F.I.O.: _____

Ilmiy ixtisoslik: _____

Tadqiqot mavzusi: _____

Komissiya a'zosi: _____

№	Baholash mezon va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
1	Avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi		10		
1.1	Avvalgi asosiy ilmiy natijalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) Tayanch doktorantura dissertatsiyasi yoki keyingi ilmiy faoliyat doirasida olingan asosiy natijalar ko'rsatilgan; 2) rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqotiga bevosita daxldor natijalar ajratilgan; 3) natijalar oddiy nashrlar ro'yxati emas, ilmiy mazmunda bayon etilgan.	3		
1.2	Avvalgi natijalar orqali hal etilgan ilmiy masalalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) avvalgi tadqiqotlarda hal etilgan asosiy ilmiy masalalar belgilangan; 2) ularning ilmiy yoki amaliy ahamiyati ifodalangan.	2		
1.3	YAngi ilmiy muammoga o'tish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) avvalgi ishlardan keyin hal etilishi talab etiladigan yangi ilmiy masala belgilangan; 2) mazkur masala avvalgi natijalardan mantiqan kelib chiqqan; 3) rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti avvalgi tadqiqotlarning takrori emasligi ko'rsatilgan.	3		
1.4	YAngi tadqiqot uchun ilmiy asos va tajriba	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) talabgorning rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tegishli ilmiy tajribasi ko'rsatilgan; 2) mazkur tajribaning doktorantura tadqiqotini amalga oshirishdagi ahamiyati asoslangan.	2		
2	Ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlari		15		
2.1	Tadqiqot yo'nalishining zamonaviy ilmiy holati	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) sohadagi asosiy zamonaviy ilmiy yo'nalishlar ko'rsatilgan;	3		

№	Baholash mezoni va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
		2) mavzuga bevosita daxldor muhim ilmiy natijalar ajratilgan; 3) mavjud ilmiy holat umumlashtirilgan.			
2.2	Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) mahalliy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan; 2) xorijiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan; 3) asosiy yondashuv yoki natijalar o'zaro taqqoslangan; 4) tahlil natijasida talabgorning umumlashtiruvchi ilmiy xulosasi shakllantirilgan.	4		
2.3	Mavjud echim va yondashuvlarning etarli bo'lmagan jihatlarni aniqlash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) mavjud echim yoki yondashuvning etarli bo'lmagan jihati ko'rsatilgan; 2) ushbu holat ilmiy manba yoki natija bilan asoslangan; 3) uning hal etilayotgan ilmiy muammoga ta'siri tushuntirilgan; 4) qo'shimcha tadqiqot talab etadigan jihat ajratilgan.	4		
2.4	Doktorantura tadqiqotining asosiy ilmiy muammosini belgilash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy ilmiy muammo aniq ifodalangan; 2) muammo o'tkazilgan tahlildan mantiqan kelib chiqqan; 3) muammo avvalgi tadqiqot natijalarini takrorlamaydi va yangi ilmiy echimni talab etadi; 4) mazkur muammoni hal etishning fan rivoji uchun ahamiyati asoslangan.	4		
3	Tadqiqot kontsepsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari		12		
3.1	Tadqiqot kontsepsiyasi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) ilmiy muammoni hal etishga qaratilgan asosiy kontsepsiya ifodalangan; 2) kontsepsiya avvalgi natijalar va zamonaviy ilmiy holatdan kelib chiqqan; 3) taklif etilayotgan asosiy ilmiy yondashuv ko'rsatilgan; 4) kontsepsiyaning ilmiy muammoni hal etishdagi o'rni asoslangan.	4		
3.2	Tadqiqot maqsadi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) bitta aniq va umumlashtiruvchi maqsad belgilangan; 2) maqsad asosiy ilmiy muammoga muvofiq; 3) maqsad kutilayotgan ilmiy natija yo'nalishini ifodalaydi.	3		
3.3	Asosiy ilmiy vazifalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) vazifalar maqsadga erishishga qaratilgan;	3		

№	Baholash mezoni va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
		2) vazifalar ilmiy mazmunga ega va bir-birini takrorlamaydi; 3) vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan.			
3.4	Kontseptsiya, maqsad va vazifalarning o'zaro bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) kontseptsiya → maqsad → vazifalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud; 2) vazifalarning bajarilishi kutilayotgan yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mantiqan asoslangan.	2		
4	Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi		6		
4.1	Tadqiqot obyekti	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot obyekti aniq belgilangan; 2) tadqiqot obyekti ilmiy muammo va maqsadga muvofiq.	2		
4.2	Tadqiqot predmeti	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) predmet obyektning bevosita tadqiq etiladigan jihatini ifodalaydi; 2) predmet obyektini takrorlamaydi va tadqiqot maqsadiga muvofiq.	2		
4.3	Tadqiqot qamrovi va muvofiqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot xususiyatiga ko'ra hududiy, vaqt, ma'lumotlar, obyektlar, eksperiment yoki boshqa tegishli qamrovi belgilangan; 2) obyekt, predmet va qamrov tadqiqot vazifalarini bajarish uchun etarli va o'zaro muvofiq.	2		
5	Tadqiqot metodologiyasi va usullari		16		
5.1	Metodologik yondashuv	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqotning umumiy metodologik yondashuvi aniq ko'rsatilgan; 2) yondashuv ilmiy muammoga muvofiq; 3) yondashuv maqsad va vazifalarga muvofiq; 4) uni tanlash sababi ilmiy jihatdan asoslangan.	4		
5.2	Asosiy ilmiy usullarni tanlash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy ilmiy usullar ko'rsatilgan; 2) usullar obyekt va predmetga muvofiq; 3) usullar belgilangan vazifalarni hal etish imkonini beradi; 4) usullarni tanlash mantig'i asoslangan.	4		
5.3	Vazifa – usul – natija bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) asosiy vazifalar tegishli usullar bilan bog'langan; 2) har bir usul orqali qanday ma'lumot yoki natija olinishi ko'rsatilgan;	3		

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
		3) olingan natijaning keyingi ilmiy vazifalar bilan bog'liqligi tushuntirilgan.			
5.4	Ma'lumotlarni olish va tahlil qilish	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) zarur ma'lumot yoki eksperiment natijalarini olish tartibi ko'rsatilgan; 2) ularni qayta ishlash va tahlil qilish usullari belgilangan.	2		
5.5	Natijalarning ishonchliligini ta'minlash	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) natijalarni tekshirish, qiyoslash yoki tasdiqlash usuli ko'rsatilgan; 2) natijalar ishonchliligini baholash yo'li belgilangan.	2		
5.6	Metodologiyani amalga oshirish imkoniyati	Tanlangan metodologiya va usullarni rejalashtirilayotgan doktorantura tadqiqoti doirasida amalga oshirish imkoniyati asoslangan bo'lsa — 1 ball, asoslanmagan bo'lsa — 0 ball.	1		
6	Kutilayotgan ilmiy yangilik		16		
6.1	Kutilayotgan asosiy yangi ilmiy natijalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) kutilayotgan yangi ilmiy natija aniq ifodalangan; 2) natija qanday yangi bilim, qonuniyat, bog'liqlik, usul, model, mexanizm yoki boshqa ilmiy echim shaklida namoyon bo'lishi ko'rsatilgan; 3) natija aniq ilmiy masalaga qaratilgan; 4) natijani tanlangan metodologiya orqali olish mumkinligi asoslangan; 5) natija faqat vazifa yoki ish jarayoni emas, ilmiy natija sifatida ifodalangan.	5		
6.2	Mavjud ilmiy natijalardan farqi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tegishli mavjud ilmiy natija yoki yondashuv ko'rsatilgan; 2) kutilayotgan natijaning undan aniq farqi ifodalangan; 3) mazkur farq ilmiy tahlilga asoslangan; 4) «ilk bor», «yangi» kabi umumiy iboralar bilan cheklanilmagan.	4		
6.3	Ilmiy muammo va vazifalar bilan bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) kutilayotgan natija taqdimotda aniqlangan hal etilmagan ilmiy masala bilan bog'langan; 2) uning qaysi tadqiqot vazifasi natijasida olinishi ko'rsatilgan; 3) natija tadqiqot kontsepsiyasi va metodologiyasiga muvofiq.	3		
6.4	Avvalgi tayanch doktorantura va boshqa natijalardan farqlanishi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) avval olingan natijalar bilan doktorantura doirasidagi kutilayotgan natijalar aniq farqlangan;	2		

№	Baholash mezoni va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
		2) ilgari olingan natija yangi natija sifatida takroran taqdim etilmagan.			
6.5	YAngi ilmiy natijalarning o'zaro bog'liqligi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) kutilayotgan natijalar o'zaro mantiqiy bog'langan; 2) ular birgalikda asosiy ilmiy muammoni hal etishga xizmat qiladi.	2		
7	Kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati		8		
7.1	Ilmiy ahamiyat	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) kutilayotgan natijaning fanga qanday ilmiy bilim qo'shishi ko'rsatilgan; 2) qaysi nazariya, usul, model yoki ilmiy yondashuvni rivojlantirishi yoki aniqlashtirishi ifodalangan; 3) ilmiy ahamiyat kutilayotgan natija bilan bevosita bog'langan.	3		
7.2	Amaliy ahamiyat	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) natijadan foydalanish mumkin bo'lgan aniq soha, obyekt yoki jarayon ko'rsatilgan; 2) natijani qo'llash yo'nalishi yoki shakli ifodalangan; 3) uning qanday amaliy masalani hal etishi tushuntirilgan.	3		
7.3	Ilmiy va amaliy ahamiyatning farqlanishi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) ilmiy va amaliy ahamiyat mazmunan bir-biridan farqlangan; 2) har ikkalasi ham taqdimotda ifodalangan kutilayotgan ilmiy yangiliklardan mantiqan kelib chiqqan.	2		
8	Tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlari va yakuniy asoslash		7		
8.1	Uch yillik tadqiqot strategiyasi	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) tadqiqot uch yillik asosiy bosqichlarga ajratilgan; 2) bosqichlar o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan.	2		
8.2	Bosqichlar, vazifalar va oraliq natijalar	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) har bir asosiy bosqichda hal etiladigan ilmiy vazifalar ko'rsatilgan; 2) bosqichlar bo'yicha kutilayotgan oraliq ilmiy natijalar belgilangan.	2		
8.3	Tadqiqotni yakunlash va himoya bosqichlari	Har bir shart uchun 1 balldan: 1) dissertatsiya bajarilgan muassasada dissertatsiyani dastlabki ekspertizadan o'tkazish rejalashtirilgan; 2) dissertatsiyani himoyaga taqdim etish va Ilmiy kengashda himoya qilish bosqichi nazarda tutilgan.	2		

№	Baholash mezonlari va ko'rsatkichi	Ball berishning aniq sharti	Eng yuqori ball	Qo'yilgan ball	Bajarilgan shart
8.4	Strategiyani amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi	Tadqiqot vazifalari, kutilayotgan natijalar va dissertatsiyani yakunlash hamda himoya qilish ishlarini uch yillik muddatda amalga oshirish imkoniyati asoslangan bo'lsa — 1 ball, asoslanmagan bo'lsa — 0 ball.	1		
9	Og'zaki taqdimot va savol-javob		10		
9.1	Avvalgi ilmiy natijalar va asosiy ilmiy muammo bo'yicha savol	2 ball — savolga bevosita, to'liq va ilmiy asoslangan javob berilgan; 1 ball — asosiy javob berilgan, ammo muhim jihatlari to'liq ochilmagan yoki asoslash etarli emas; 0 ball — javob berilmagan, savolga aloqador bo'lmagan ma'lumotlar orqali javob berilgan yoki talabgor o'z taqdimotida bayon etgan ilmiy fikrni tushuntirib bera olmagan.	2		
9.2	Tadqiqot kontsepsiyasi, maqsadi va vazifalari bo'yicha savol	2/1/0 ball — 9.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
9.3	Metodologiya va tadqiqot usullari bo'yicha savol	2/1/0 ball — 9.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
9.4	Kutilayotgan ilmiy yangilik hamda uning ilmiy va amaliy ahamiyati bo'yicha savol	2/1/0 ball — 9.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
9.5	Tadqiqot strategiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari bo'yicha savol	2/1/0 ball — 9.1-bandda belgilangan yagona tartib asosida.	2		
JAMI			100		

Baholash varag'ini to'ldirish bo'yicha umumiy izohlar

1. Har bir ko'rsatkich bo'yicha ball faqat jadvalda belgilangan shartlarning bajarilganlik holati asosida qo'yiladi.
2. Har bir shart uchun 1 ball belgilangan ko'rsatkichlarda komissiya a'zosi bajarilgan shartlar soniga muvofiq ball hisoblanadi.
3. Ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori balldan kam ball qo'yilgan taqdirda, komissiya a'zosi qaysi aniq shart bajarilmaganini «Bajarilmagan shart» ustunida ko'rsatadi. «Etarli emas», «asoslanmagan», «to'liq ochib berilmagan» kabi umumiy izohlar o'rniga aniq baholash sharti qayd etiladi.
4. Bir xil kamchilik bir nechta mezon bo'yicha takrorlangan taqdirda ushbu sabab ball kamaytirilishi maqsadga muvofiq emas. Agar mazkur holat turli mezonlarga mustaqil ravishda ta'sir etsa, har bir mezon bo'yicha ta'siri alohida baholanadi.
5. Savol-javob qismida har bir belgilangan mazmuniy yo'nalish bo'yicha berilgan asosiy savol baholash varag'ida qayd etiladi.
6. Titul qismi alohida ball bilan baholanmaydi, biroq unda ko'rsatilgan tadqiqot mavzusining tanlangan ilmiy ixtisoslikka muvofiqligi taqdimotning keyingi mazmunini baholashda inobatga olinadi.